INVESTITSIYANING ASOSIY VAZIFASI VA SHAKLLARI TASNIFI

Shukurov Nurbek Akbarovich
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Received: 16.08.2025
Revised: 17.08.2025
Accepted: 19.08.2025
Key words:
investitsiya, investitsiyaning vazifalari, investitsiya shakllari, moliyaviy investitsiyalar, portfel investitsiyalari, iqtisodiy o‘sish, investitsiya boshqaruvi.

Abstract
Ushbu maqolada investitsiyaning asosiy vazifalari va shakllari batafsil tahlil qilinadi. Investitsiya tushunchasi, uning iqtisodiyotdagi roli va maqsadlari ochib beriladi. Shuningdek, investitsiyaning turli shakllari, jumladan moliyaviy, real, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va portfel investitsiyalari kategoriyalari tasnifi va ularning har birining xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Maqola investitsiya jarayonining samarali boshqarilishi uchun zarur bo‘lgan asosiy tamoyillar va investitsiya faoliyatining iqtisodiy o‘sishga ta’siri haqida mulohazalar beradi.

Investitsiya ma’lum sub’ekt orqali iqtisodiyot sohalaridan daromad olish yoki samaraga erishish maqsadida sarflanayotgan ekan, uni bevosita va bilvosita daromad keltiruvchi investitsiyalarga ajratish maqsadga muvofiqdir. G‘arb davlatlarida investitsiyaning iqtisodiy asoslariga ikki tomonlama tushuncha beriladi: mikroiqtisodiy va makroiqtisodiy tomondan. Mikroiqtisodiy jihatdan qaralganda, investitsion qarorlariga korxona va tashkilotlar darjasida qaraladi. Bunda ishbilarmonlarga ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan eng optimal investitsiya siyosati taqdim etiladi. Makroiqtisodiy tomondan qaralganda esa, birinchi navbatda davlatning investitsiya siyosati qaralsa, undan keyin aholi bankdagi va daromadi hisobga olinadi. Bugungi kunda jahonda investitsiyaning nazariy asoslariga turlicha qarashlar mavjud bo‘lib, aniq bir xulosa shakllantirilmagan (http://www.investmentrussia.ru/teoriya-investirovaniya/teorija-investitzij.html).

Keynscha investitsiya o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, unda asosiy e’tibor faqat obektiv ko‘rsatkichlarga bog‘lanib qolmasdan balki aholi

jamg‘armalariga ham bog‘langan. Keyns nazariyasida investitsiya asosan aholi daromadlari bilan bog‘liqlikda ko‘rilgan. Nazariy mohiyatiga chuqurroq e’tibor qaratsak, aholi daromadlarini fond bozori orqali shakllantirish muhim hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, Keynsning investitsiya nazariyasiga asosan fond bozori aholi jamg‘armalari orqali tashkil topadi.

Investitsiya qo‘yish obekti kapital qo‘yilmalar obektiga nisbatan kengroqdir. Kapital qo‘yilmalar qo‘yish obektiga faqat asosiy fondlar kirsa, investitsiyaga qo‘yish obektiga aylanma mablag‘lar, qimmatbaho qog‘ozlar (aksiya, obligatsiya, sertifikat, veksel), shuningdek, mulklardan foydalanish va egalik qilish huquqlari, intellektual mulk bo‘lgan ilmiy kashfiyotlar, texnikaviy yangiliklar, ixtirolar, «nou-xau», kadrlar tayyorlash kiradi. Investitsiya ikki turga bo‘linadi: birinchisi, mablag‘ni to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalash, ya’ni uni korxona ishiga kapital sifatida qo‘yish. Ikkinchisi, mablag‘ni korxonalar aksiyalarini sotib olishga sarflash bo‘lib, portfel investitsiyalar deb ataladi.

Tadbirkorlik ishida xavf-xatarni kamaytirish uchun investitsiya bir vaqtning o‘zida bir necha ishga qo‘yiladi. Bu bilan bir yerda ko‘riladigan zararni boshqa yerda ko‘rilgan foyda bilan qoplash mumkin. Bunday mablag‘ qo‘yish diversifikatsiyalashgan investitsiya deb yuritiladi.

Foyda miqdorini kamaytirmaslik uchun foyda normasi pasaygan chog‘da olingan foydani qaytadan pul topish uchun qo‘yish reinvestitsiya deyiladi.

Investitsiyalar qo‘yiladigan obektlarga qarab real, moliyaviy va intellektual investitsiyalarga bo‘linadi.

Asosiy fondlar va aylanma mablag‘larga investorlar kiritadigan barcha turdagi boyliklar real investitsiya hisoblanadi. Hozir iqtisodiyotimiz tarmoqlarini tarkibiy qayta qurish uchun yangi texnika, texnologiya va katta hajmdagi qurilish ishlarini amalga oshirish uchun real investitsiyalarga ehtiyoj kattadir. Bu ehtiyojni qondirishning asosiy yo‘llaridan biri korxonalar investitsion faoliyatini rag‘batlantirishdir.

Aksiya, obligatsiya va boshqa turdagi qimmatbaho qog‘ozlarga investorlar qo‘yadigan barcha turdagi boyliklarga moliyaviy investitsiya deyiladi. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish bilan moliyaviy bozor rivojlanadi. Natijada moliyaviy investitsiyalar faollashadi.

Intellektual investitsiya bu kadrlar tayyorlash, ilmiy tekshirish, ta’lim va boshqa intellektual salohiyatlarga investorlar qo‘yadigan barcha turdagi boyliklardir. Investitsiya loyihasi deganda, qurilishi ko‘zda tutilgan bino va inshootlarni hujjatlashtirilgan rejalari tushunilardi.

Hozirgi davrda loyiha tushunchasi kompleks tushuncha bo‘lib, jamiyat hayoti va faoliyatining turli tomonlarini o‘z ichiga oladi. Loyiha deganda uning doirasida shakllangan maqsadlar va ularni bajarish bo‘yicha boshqaruv qarorlari va tadbirlar tizimi tushuniladi.

Investitsiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- iqtisodiyotda ishlab chiqarish kuchlari va vositalarini maqbul joylashtirish bilan keng tarmoqli bozor infratuzilmalarini shakllantirishga imkon yaratish;
- iqtisodiyotdagi takror ishlab chiqarish jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi barcha yo‘nalishlarni va imkoniyatlarni amaliyotga tadbiq etish;
- mamlakatning milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda, qonuniy kafolatlangan investorlarni qoniqtiruvchi ulushini yaratadigan va moliyaviy o‘sishni ta’minlovchi infratuzilmalarni faollashtirish;
- iqtisodiyotning barcha sohalarini faollashtirish orqali mamlakatning barqaror o‘sishi va jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvini tezlashtirish.

Investitsiyalar quyidagi shakllarda bo‘lishi mumkin:

- pul mablag‘lari va qimmatbaho qog‘ozlar;
- harakatdagi va harakatda bo‘lmagan mulklar;
- mualliflik huquqi, ixtirolik huquqlaridan foydalanish va boshqa intellektual boyliklar;

- tabiiy resurslardan foydalanish va mulkchilik huquqlari;
- boshqa boyliklar.

Respublikamiz olimlarining investitsiya sohasida olib borgan ilmiy ishlarida qulay investitsiya muhitini barpo etish va unga ta’sir etuvchi omillar ma’lum bir asosda guruhlashtirilgan. Bular iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy omillardir. Lekin mazkur omillarning investitsiya faoliyatiga ijobiy yoki salbiy ta’sir etishi yetarlicha ochib berilmagan. Shu bois, investitsiya muhitiga ta’sir etuvchi omillarni guruhlashtirish ularning xususiyatini to‘laroq va kengroq ochib berishga imkon beradi. Keyingi paragraflarimizda mamlakatda investitsiyalarni jalb etishda uning hududlar iqtisodiyotini rivojlantirish muhim omil bo‘lishi ochib beriladi.

Investitsiyalar iqtisodiy o‘sish va rivojlanish jarayonining ajralmas va fundamental omili sifatida dunyo mamlakatlari uchun strategik ahamiyatga ega. Ular milliy ishlab chiqarishning turli sohalarida yangi imkoniyatlarni yaratish, texnologik yangilanishlarni joriy etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda ijtimoiy sohada sifatli o‘zgarishlarga zamin yaratadi. Ayniqsa, investitsiyalar innovatsion faoliyatning asosiy manbai sifatida qabul qilinib, zamonaviy iqtisodiyotni raqobatbardosh qilishda muhim o‘rin tutadi. Global iqtisodiyotda kapital oqimlarining keskin o‘zgarishi va investitsiyalar uchun raqobat kuchayishi davlatlarni o‘z investitsion siyosatini doimiy ravishda qayta ko‘rib chiqishga majbur qilmoqda. Shu bilan birga, sarmoyadorlar uchun barqaror, xavfsiz va o‘zgaruvchan bo‘lmagan investitsion muhit yaratish iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda asosiy shartlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Mamlakatlar investitsiyalarni jalb qilish uchun qonuniy huquqiy mexanizmlar, moliyaviy vositalar, siyosiy barqarorlik va ijtimoiy-madaniy sharoitlarni doimiy takomillashtirishga intilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi bilan birga, mamlakat iqtisodiyotni liberallashtirish, xususiy sektorni rivojlantirish va xorijiy

investitsiyalarni jalb etish sohasida keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirdi. Geografik jihatdan Markaziy Osiyoda strategik ahamiyatga ega bo‘lgan O‘zbekiston tabiiy resurslarga boy, yosh aholisi ko‘p, mehnat salohiyati yuqori va iqtisodiy diversifikatsiyaga intilayotgan davlat sifatida o‘z investitsion jozibadorligini oshirishga katta imkoniyatlarga ega. Shu bilan birga, mamlakatda ishlab chiqarish tarmoqlari va xizmat ko‘rsatish sohasi, ayniqsa, energetika, qishloq xo‘jaligi, transport va logistika kabi sohalar sarmoya kiritish uchun istiqbolli yo‘nalishlardir. Biroq, iqtisodiy imkoniyatlarga qaramay, investitsion iqlimni yanada yaxshilash va sarmoyadorlarning ishonchini oshirish uchun davlat tomonidan tizimli chora-tadbirlar ko‘rilishi talab qilinadi.